

## **“O‘ZAVTOSANOAT” AJ FAOLIYATIGA OID HISOBOT**

2024-yil mamlakatimiz avtomobil sanoati ishlab chiqarish va eksport ko‘rsatkichlarining barqaror o‘shishini ko‘rsatib, ijobiy dinamikani namoyish etdi. RaQamlarga e‘tibor qaratsak, 82,1 trln so‘mlik mahsulot, jumladan 431,1 ming dona avtomobil ishlab chiqarildi. Bu 2016-yilga nisbatan o‘shish – 4,9 barobarni tashkil etganini anglatadi. Natijada, bugungi kunda avtomobilsozlik sohasining sanoatdagi ulushi 11,7 foizni tashkil etdi.

Davlat byudjetiga 9,6 trln so‘mdan ortiq soliqlar va boshqa to‘lovlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda avtomobillar parki 4,3 mln donaga yetkazildi (2016-yilga nisbatan o‘shish – 1,6 barobar), 1 000 kishiga avtomobillar soni 117 tani tashkil etdi (2016 yilga nisbatan o‘shish – 1,8 barobar).

### **Investitsiyalar va mahalliyashtirish**

2024 yilda “Uzavtosanoat” AJ tizim korxonalarining investitsiya loyihalari doirasida 243,2 mln dollar investitsiyalar, shu jumladan 188,1 mln dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Mahalliyashtirish dasturining 25 ta loyihasi doirasida 23,8 trln. so‘mlik mahalliy mahsulot ishlab chiqarildi. 186 dona avtomobil butlovchi qismlarini mahalliyashtirish hisobiga 693,9 mlrd so‘mlik ishlab chiqarish xarajatlari qisqartirildi. Jumladan, tarmoqaro kooperatsiya va shatakka olish mexanizmi orqali tarmoq korxonalari tomonidan “Damas” va “Treker” modellari uchun shinolar, “Treker” va “Oniks” modellari uchun tom reylinglari, uskunalari paneli, g‘ildiraklar, yoritish chiroqlari, o‘rindiqli matolari va sun‘iy charm koplamlari yetkazib berish yo‘lga qo‘yildi. Natijada joriy yilda tarmoqda 2 395 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi. Jami tarmoqda ish bilan band bo‘lganlar soni 38 ming nafarga yetdi (2016 yilga nisbatan o‘shish – 1,6 barobar).

### **Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sohasida**

2024-yilda qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sohasida ham salmoqli natijalarga erishildi. Zamonaviy ixtisoslashtirilgan texnikalar, jumladan, traktorlar, kombaynlar va yordamchi mashinalarning o‘zlashtirilishi va ishlab chiqarilishi qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini sezilarli darajada oshirdi.

Jumladan, Chirchiq qishloq xo‘jaligi mashinasozlik klasterida 2,1 trln so‘mlik (5 ming) dona qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarildi, o‘tgan yilga nisbatan o‘shish 3,8 barobarga erishildi.

Mahalliy mahsulotlarni Turkmaniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston davlatlariga eksporti amalga oshirildi. Koreya Respublikasining “Sammi-K So.” kompaniyasi bilan payvandlash liniyasi ishga tushirildi. Koreya Respublikasining “Eunsung Industry Co.” kompaniyasi bilan hamkorlikda bo‘yash liniyasi uskunalari modernizatsiya qilindi va ishga tushirildi. Mahalliy

korxonalarda cho'yanda detallarni quyish, lazerli kesish, shtamplash, mexanik ishlov berish, payvandlash, bo'yash hamda yig'uv kabi jarayonlar yo'lga qo'yildi. 7 turdagi yangi texnika o'zlashtirildi (lazerli yer tekislovchi, kultivator, mineral o'g'it sepgich, purkagich, omoch, tirkama). O'rtacha mahalliyashtirish darajasi osma va tirkama texnikalarda 60 foiz, o'zi yuradigan texnikalarning 25 foizini tashkil qildi. Kelajakda mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiya asosida kabina detallari, transmisiya va boshqa cho'yanda qismlarni hamda boshqa butlovchi qismlarni o'zlashtirish rejalashtirilgan.

“Weichai Lovol” kompaniyasi bilan qiymati 5,7 mln dollarlik va yillik 2 000 dona texnika ishlab chiqarish quvvatiga ega loyiha bo'yicha hamkorlik kelishuvi imzolandi. Germaniyaning “Claas” kompaniyasi bilan “Claas Dominator 260” g'alla o'rish kombayni va “Arion 630C” haydov traktorlarining mahalliyashtirish darajasi 25 foizga yetkazildi.

2024-yilda kombaynning jami 400 dan ortiq ehtiyot qismlari jumladan, bunker, kiya kamera, koplama, zina, jg'utlar, yuk qismlari mahalliyashtirildi. 2025-yilda mazkur texnikalarning mahalliyashtirish darajasini 30 foizga yetkazish hamda eng e'tiborlisi mahalliy butlovchi qismlarni «Claas» kompaniyasining Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlardagi ishlab chiqarish konveyerlariga 2025 yilda 1 mln. doll., 2026 yilda 1,5 mln. doll. qiymatida yetkazib berish bo'yicha kelishuvga erishildi. Koreyaning “KOAMI”, “KITECH”, “Agro Solution Korea”, “Jeonbuk Technopark” va “KIAT” kompaniyalari bilan o'zaro hamkorlik o'rnatildi. Klasterning 250 nafarga yaqin xodimi 3D modellashtirish, xavfsizlik, qayta jihozlash yo'nalishida Koreya standartlariga asosan o'qitildi.

“Jeonbuk Technopark” va “KIAT” kompaniyalaridan grant asosida 750 ming dollarlik 31 dona dastgoh va laboratoriya asbob-uskunolari olib kelindi. Mazkur dastgohlar yordamida TTZ-812 traktorini siqilgan tabiiy gazga yetkazish loyihasi amalga oshirildi va namunali ishlab chiqarildi. 2025 yilda mamlakatdagi traktorlarni tabiiy gazga o'tkazish hamda bu borada xodimlar malakasini oshirish rejalashtirilgan.

Respublika bo'yicha servis markazlari 75 taga, mobil servislar 320 taga va yuqori malakali mexaniklar soni 600 taga yetkazildi. Paxta terish mashinalaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida chet eldan 100 nafarmutaxassis jalb qilindi. Bundan tashqari, viloyat hokimliklari, tijorat banklari hamda lizing kompaniyalari bilan hududlarda fermer xo'jaliklari va klaster xodimlari uchun ko'rgazmali o'quv mashg'ulotlari yo'lga qo'yildi. Fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli lizing shartlari joriy qilindi, jumladan dastlabki to'lov miqdori 30 foizdan 20 foizga va foiz stavkalari 26 foizdan 10 foizga tushirildi, lizing muddati 5 yildan 10 yilga uzaytirildi.

## **Elektromobil va gibrid avtomobillar ishlab chiqarish loyihasi**

Xitoyning “BYD” kompaniyasi bilan hamkorlikda Jizzaxdagi yangi “BYD Uzbekistan Factory” MChJ QKda Chazor va Song Plus Champion modellari ishlab chiqarish boshlandi.

Loyiha doirasida 60 million dollar miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi, 1 200 ta yangi ish o‘rinlari hamda respublika bo‘ylab 21 ta dilerlik va servis markazlari yaratildi.

Zavodda avtomobil kuzovlarini payvandlash, bo‘yash va yig‘ish uchun yuqori texnologiyali uskunalar o‘rnatildi va MDH davlatlarida yagona bo‘lgan laboratoriya tashkil qilindi.

Ushbu korxonaning joriy quvvati 50 ming dona avtomobilni tashkil qilib, uning quvvatini uch bosqichda 500 ming dona avtomobilga yetkazish rejalashtirilgan. Bu O‘zbekistonni elektromobillar ishlab chiqarishda mintaqaviy etakchiga aylantiradi. Respublikaning 7 ta mahalliyashtirish korxonalarida “BYD” avtomobillari uchun butlovchi qismlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishlar jadallik bilan olib borilmoqda.

Shu bilan birga, barcha avtomobillar mahalliy iqlim sharoitidan sinovdan o‘tkazilgan va moslashtirilgan. Shuningdek, avtomobillarning multimedia tizimiga o‘zbek va rus tillari joriy etildi, hamda mahalliy SIM kartalar o‘rnatish orqali avtomobilni masofadan boshqarish va internet orqali boshqa dasturlardan foydalanish joriy qilindi.

Mahalliy bozorda “BYD”ning mavjud modellari qatori kengaytirildi, 3 ta hamyonbob modellari ya‘ni “Seagull”, “E2” va “Yuan Up” modellari sotuvga chiqarildi va natijada bugungi kunda O‘zbekiston bozorida rasmiy dilerlar tomonidan 8 ta model taklif qilinmoqda.

Faoliyat yuritayotgan rasmiy servis markazlarida malakali mutaxassislar ish faoliyatini olib bormoqda. Shu bilan birga, “BYD” avtomobillari uchun barcha turdagi ehtiyot qismlar mavjud bo‘lib ularni Respublika bo‘ylab yetkazib berish imkoniyati ham mavjud.

Jizzaxdagi zavodda “BVPS” yani “BYD Avtomobil Ishlab Chiqarish Standarti” asosida ishlab chiqarish tashkil etilgan. Bunda avtomobillarni yuqori sifatini saqlash maqsadida avtomatlashtirilgan yani robotlar yordamida payvandlash va bo‘yash, maxsus ulchov laboratoriyasida kuzov ulchamlarini tekshirish, hamda kichik uzelli yig‘ish va test trekdan sinovdan o‘tkazish kabi zamonaviy yuqori texnologiyalardan foydalaniladi.

